

**ANDIJON VILOYATI PAXTACHILIGIDAGI AGRAR ISLOHOTLAR VA
YANGICHA BOSHQARUV USULLARI**

A.A.Alisherov

***Zahiriddin Muxammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
“Jahon tarixi” kafedrası dotsenti***

Annotasiya: Maqolada Andijon viloyati paxtachiligida agrar islohotlar va yangicha boshqaruv usullarining joriy etilishi tarixi tahlil qilingan. Ayniqsa, chigitni plyonka ostiga ekish hamda tomchilatib sugʻorish texnologiyalarining ilk tajribalari, ularning iqtisodiy va agrotexnik ahamiyati hamda keyingi bosqichlardagi rivojlanish jarayoni yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Agrar islohotlar, paxtachilik, agrotexnologiya, plyonka ostida ekish, tomchilatib sugʻorish, fermer xoʻjaligi, suv tejamligi.

Abstract: This article analyzes the history of agrarian reforms and the introduction of new management methods in cotton growing in the Andijan region. In particular, the first experiments of cotton sowing under film and drip irrigation technologies, their economic and agrotechnical significance, and the development process in subsequent stages are highlighted.

Keywords: Agrarian reforms, cotton growing, agrotechnology, sowing under film, drip irrigation, farming, water conservation.

Kirish: Oʻzbekiston oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritgach, mamlakat qishloq xoʻjaligi sohasida tub iqtisodiy va tashkiliy islohotlar boshlandi. mustaqillikning dastlabki bosqichida davlat buyurtmasi tizimi saqlanib qolgan boʻlsa-da, yer munosabatlari, mulkchilik shakllari va ishlab chiqarishni tashkil etish usullari bosqichma-bosqich yangilandi. Bu jarayon Andijon viloyati paxtachiligida ham yaqqol namoyon boʻlib, mavjud anʼanaviy agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda yuqori samara beradigan yangi boshqaruv usullarining joriy etilishiga boʻlgan ehtiyoj kuchaydi.

Qishloq xoʻjaligi sugʻoriladigan hudud hisoblangan Andijon viloyatida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ertapishar hosil yetishtirish hamda paxta hosildorligini oshirish paxtachilikni tamomila raqobatbardoshlik darajasiga olib chiquvchi muhim tadbirlardan biriga aylandi. Xususan, mamlakat Prezidenti

Sh.M.Mirziyoev bu haqida: “Fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash bo‘yicha maxsus strategiya ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi,” [1. B. 156] - deb ta’kidlagani bu sohadagi ishlarni yanada dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Metodlar va usullar: Andijon viloyati paxtachiligidagi agrar islohotlar va yangicha boshqaruv usullarining joriy etilishi tarixi tahlil qilingan arxiv materiallari ilmiy izlanishlarida iste’molga kiritilmagan manba – paxtachilik sohasidagi yangicha yondashuvlar tadqiqot materialini bo‘lib xizmat qildi. Qo‘yilgan muammoni o‘rganish jarayonida tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda, qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

Asosiy qism: Mustaqillikning dastlabki bosqichida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy maqsadi markazlashgan boshqaruv tizimidan voz kechish, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish, yerdan samarali foydalanish hamda qishloq aholisining iqtisodiy manfaatdorligini oshirishdan iborat edi.

1991-1995 yillarda respublika qishloq xo‘jaligida sobiq ittifoq davridan meros bo‘lib qolgan kolxoz va sovxozlar faoliyati qayta ko‘rib chiqildi. Bu jarayon Andijon viloyatida ham bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Avvalo, davlat xo‘jaliklari jamoa va shirkat xo‘jaliklariga aylantirildi. Keyinchalik esa ular negizida fermer xo‘jaliklari tashkil etila boshladi.

1992 yildan boshlab qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanishning yangi shakllari joriy etildi. Yer davlat mulki sifatida saqlanib qolgan holda, uzoq muddatli ijara huquqi asosida fermerlarga ajratila boshlandi. Bu esa yer egasining mas’uliyati va manfaatdorligini oshirishga xizmat qildi.

Bu jarayonlar keyingi yillarda plyonka ostiga chigit ekish, tomchilatib sug‘orish, yuqori hosilli navlarni joriy etish kabi innovatsion texnologiyalarning ommalashishi uchun ham asos bo‘lib xizmat qildi.

“Plyonka yordamida dehqonchilik qilish aslini olganda yangilik emas. Taraqqiy etgan mamlakatlarda bu usuldan foydalanish borasida aniq-ravshan

tadbirlar oshirilgan. Jumladan, plyonka yordamida paxta yetishtirishga o'tgan Xitoyda buning natijalarini yaqqol ko'rishimiz mumkin" [3.B.1].

Lekin bu davrga kelib Andijon paxtachiligida bu usuldan foydalanish dehqonchilikdagi yuksak inqilobdir deb baholanadi, bu usulga o'tish ham oson bo'lmadi. Odatda eskilik bilan yangilik o'rtasida murosa bo'lmaydi. Faqatgina yangilikka o'ch rahbarlargina o'zlari ishlayotgan xo'jaligida sinov boshlaydi.

Ana shunday qiziquvchan paxtakorlardan O'zbekiston Qahramoni marhum Siyosatxon opa Abdullaeva birinchilardan bo'lib, o'z xo'jaligida "bir gektaru 10 sotix yerga plyonka ostiga chigit ekildi. 13 aprelda ekilgan chigit juda yaxshi rivojlandi. Yil yakunida hosildorlik gektar hisobiga 53 sentnerdanga to'g'ri keldi" [4.B.3].

Arxiv manbalarida qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 2 apreldagi 11/48-82-sonli xati asosida yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini tajriba tariqasida joriy etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar belgilandi. Mazkur hujjatga muvofiq, Ulug'nor tumanidagi "Andijon" shirkatlar uyushmasida yomg'irlatib sug'orish usulini tajriba sifatida joriy etish to'g'risidagi topshiriq Andijon viloyatining tegishli boshqarma va tashkilotlariga yuborilib, ijro uchun qabul qilindi.

Topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida tajriba maydonlari aniq belgilab olindi. Jumladan, yomg'irlatib sug'orish texnologiyasining samaradorligini sinovdan o'tkazish uchun Ulug'nor tumanidagi "Andijon" shirkatlar uyushmasining 120 gektar hamda "Do'stlik" shirkatlar uyushmasining 80 gektar ekin maydonlari ajratildi. Ushbu tajriba ishlari suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, paxtachilikda sug'orish samaradorligini oshirish hamda ilg'or agrotexnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishga qaratilgan dastlabki amaliy qadamlardan biri sifatida ahamiyat kasb etdi.

Mazkur arxiv hujjati mustaqillikning dastlabki yillarida Andijon viloyati paxtachiligida suv tejovchi texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etishga davlat darajasida katta e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Keyingi yillarda tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish kabi innovatsion usullarning keng qo'llanilishi aynan shu

kabi tajriba loyihalari orqali shakllanganini ta'kidlash mumkin.

“Viloyat paxtachilik tarixiga nazar tashlasak, 2001-yilda xomashyo asosan shirkat va fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu vazifa to'liq paxta-to'qimachilik klasterlari va zamonaviy fermer xo'jaliklari zimmasiga o'tdi” [2.B.72].

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki bosqichida Andijon viloyati paxtachiligida amalga oshirilgan agrar islohotlar qishloq xo'jaligini bozor munosabatlariga moslashtirishda muhim tarixiy bosqich bo'ldi. Kolxoz va sovxozlar o'rniga shirkat hamda fermer xo'jaliklarining tashkil qilinishi, yer munosabatlarining isloh qilinishi, boshqaruvning iqtisodiy usullariga o'tilishi paxtachilik tarmog'ining keyingi rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratdi.

Shu bilan birga, islohotlarning dastlabki bosqichida yuzaga kelgan muammolar keyingi yillarda bosqichma-bosqich bartaraf etilib, Andijon viloyati paxtachiligida yuqori samaradorlikka erishish imkonini berdi. Bu tajriba O'zbekiston agrar sohasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim tarixiy namunasi sifatida baholanadi.

Адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. (2021). Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O'zbekiston” нашриёти.
2. Алишеров А.А. (2026) Ўзбекистонда пахтачиликни тараққий эттиришда ширкат ва деҳқон (фермер) хўжаликларининг ўрни. (*Андижон вилояти мисолида*) Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2026, № 1 (93), 72.
3. Асқаров Қ. (1997). Пахтачиликда Андижон усули-деҳқончиликда инқилобдир. Андижоннома № 65 (17335) 12 август, 1.
4. Асқаров Қ. (1996) Янги технология сари қадам. Андижоннома № 30 (17300) 1 март. 3.
5. Андижон вилояти давлат архиви (АВДА) 4141-фонд, 1-руйхат, 183-йиғмажилд, 33-варақ.